

# O'ZBEKISTONDA YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARI TARQALISHI VA HOZIRGI KUNDAGI TENDENSIYASI

**Majidov Sharifjon Xusenovich**

Osiyo xalqaro universitetida Assistent

**Abuov Aybek Allayarovich**

Osiyo xalqaro universiteti talabasi

**Anatatsiya:** O'zbekistonda yurak-qon tomir kasalliklari bilan kasallanish va o'lim ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Jalon sog'lqn ni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 15 yil ichida yurak-qon tomir kasalliklari hali ham kattalar va yosh aholi orasida o'lim va nogironlik sabablari orasida yetakchi o'rinni saqlab kelmoqda. Shuningdek, yurak-qon tomir tizimi kasalliklaridan yillik o'limni hisobga olish kerak, bu taxminan 17,7 mln kishini tashkil etadi, bu global o'limning barcha holatlarning 31% ni tashkil qiladi. Yangi yuqori texnologiyali tibbiy yordamlarning jadal rivojlanishi va kardiologik amaliyatga joriy etilishiga qaramasdan, bemorlarning barcha turdagi yutyo lardan foydalanish mexanizmlari va bu sohadagi tashkiliy jarayonlar yetarlicha o'rganilmagan. Biroq, hozirgi vaqtida sohasida ushbu faoliyatga bag'ishlangan tadqiqotlar deyarli yo'q, bu tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi va mavzusini belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** Yurak-qon tomir kasalliklari, Yurak ishemik kasalligi, o'lim, nogironllik,

**Annotation:** The review article analyzes the incidence and mortality rates from cardiovascular diseases all over the world, including in Uzbekistan. According to the World Health Organization over the past 15 years, still retain their leading positions among the causes of mortality and disability in both the adult and young population. It is also important to consider the annual mortality from diseases of the cardiovascular system, which is about 17.7 million people, which is 31% of all cases of global mortality. Despite the rapid development and introduction of new high-tech medical care into cardiological practice, the mechanisms of patient access to all types of and organizational processes in this area have not been studied enough. However, now there are practically no studies devoted to this activity in the field of, which determines the relevance, purpose, and subject of the study..

**Keywords:** cardiovascular diseases, mortality, morbidity



**Maqsad:** Hozirgi kundagi o'zbekistonda yurak-qon tomir kasalliklarining uchrashi va uning natijasida kelib chiqayotgan o'lim holatlari

**Taqiqt:** O'zbekiston respublikasida ham dunyoning boshqa davlati singari Yurak-qon tomir kasalliklari uchrash soni o'sib bormoqda. O'zbekistonda Yurak-qon tomir kasalliklaridan o'lim holati 2021 yilda 61,7 % tashkil etib 107 666 -ta ga yetdi. Yurak qon tomir tizimi kasalliklaridan vafot etganlar yosh ko'rsatkichi 18-74 yoshlar o'rtasida kuzatilib, Erkak jinsida ayollarga qaraganda 2 barobar ko'p uchraydi. O'zbekiston Respublikasida Yurak-qon tomir kasalliklaridan o'lim ko'rsatkichini viloyatlar kesimida ko'radigan bo'lsak quyidagicha natija kelib chiqadi:(1-jadval)

1-

jadval

#### O'zbekiston respublikasi viloyatlarida Yurak-qon tomir tizimi kasalliklaridan vafot etganlar sonining viloyatlar kesimida

	O'zbekiston Respublikasi viloyatlari	YQK o'lim holatlari (nafar)
	Qoraqalpog'iston	8756
	Andijon	16409
	Buxoro	9129
	Qashqadaryo	14981
	Namangan	13542
	Samarqand	18808
	Surxandaryo	12786
	Toshkent Shahar	18892
	Toshkent viloyat	18121
0	Farg'on'a	18703

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida insonni nogironlik va o'lim holatlariga olib keluvchi ko'plab kasalliklar mavjud, bularga : yurak ishemik kasalligi, o'tkir miokard infarkti, serebro vascular kasalliklar, gipertoniya kasalligi, yomon sifatli arterial gipertensiya, periferik arteriya va vena qon tomir kasalliklari, tug'ma va ortirilgan yurak nuqsonlari, o'tkir va surunkali yurak yetishmovchiligi, hayot uchun xavfli aritmiyalar, miokardit va boshqa kasalliklar sababli o'lim holati kuzatilmoqda.

Hozirgi kunda barcha davlatlarda yurak qon tomir kasalliklar sababli kelib chiqadigan aholining o'lim va nogironlik ko'rsatkichini kamaytirish uchun choralar ishlab chiqilmoqda, chunki aholining mehnatga layoqatli bo'lgan kerakli kadrlar



o'rtasida bu kasalliklar ko'p uchramoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.03.2017 yil № PQ-2857 ga binoan shahdan uzoqda joylashgan qishloq aholisida kasalliklarga erta tashxis qo'yish va surunkali kasalliklarni oldini olish maqsadida profilaktik tekshiruvlarni olib boorish uchun klinik-biokimyoviy va instrumental (EKG, UTT va b) laboratoriyalarni tashkil etish topshirig'i berilgan.

Yurak-qon tomir kasalliklariga qarshi davlat miqiyosida kurashish uchun quyidagi chora tadbirlarni ko'rishimiz kerak:

1. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini kelib chqaradigan xavf omillariga qarshi kurashib birlamchi profilaktikani kuchaytirish.
2. Sog'liqning saqlash tizimidagi birlamchi bo'g'inlarida profilaktik chora tadbirlar o'tkazish va dori-darmonlar bilan ta'minlash.
3. Sog'liqning saqlash tizimidagi birlamchi bo'g'inlarida zamonaviy diagnostika va davolash texnik bazasini moddiy ta'minlash.
4. Aholiga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish sifatini va qamrab olingen aholi hajmini oshirish.
5. Aholiga xizmat qilayotgan tibbiy xodimlarni malakasini oshirish.
6. Respublikaning barcha hududlarida Kardioxirurgik davolash maqsadida kardiologiya markazlarini tashkil etish
7. Tibbiyotda zamonaviy IT-sohasini yutuqlaridan foydalangan holatda masofaviy malakali tibbiy maslahatlarni olishni (telemedisina) tashkil etish.

Shu chora tadbirlarni bajarish orqali o'zbekistonda yurak-qon tomir va boshqa kasalliklardan kelib chiqadigan o'lim va nogironlik holatlarini kamaytirishga erishamiz. Hozirgi kunda yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan kasallangan bolalar va katta yoshli bemorlarning 20% i o'lim holati va 80% nogironlik holati bilan yakunllanadi.

**Xulosa:** o'zbekiston Respublikasida aholining 2,4% qismi 782 ming nafar fuqoro nafaqa oladi shulardan 376 ming nafari I va II guruh nogironlik nafaqasini oladi. Bu ko'rsatkich yildan yilga oshib bormoqda, birinchi navbatda yuqorida chora tadbirlarni ko'rish orqali yurak-qon tomir kasalliklarni aholi o'rtasida o'sish progressini to'xtatish va uni kamaytirishga erishish mumkin. Bu uchun davlat, tibbiyot xodimlari katta xizmat va aholidan o'z sog'lig'iga befarq bo'lmay. Masuliyat bilan yondashish talab qilinadi.





## **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Rizaev J.A., Saidov M.A., Khasanjanova F.O. CURRENT TRENDS IN PREVALENCE AND OUTCOME OF CARDIOVASCULAR DISEASES AMONG THE POPULATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Journal of cardiorespiratory research*. 2023, vol 4, issue 1, pp.18-23
2. Xusenovich, M. S., & Turapjanovna, Z. M. (2024). SEMIZLIKNING TURLI FENOTIPLARDA KARDIOMETABOLIK XAVF OMILLARINI TAQQOSLASH. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(4), 112-116.
3. Husenovich, M. S., & Turabdjanovna, Z. M. (2024). STUDY OF DIURNAL PROFILE OF ARTERIAL HYPERTENSION IN DIFFERENT PHENOTYPE OBESITY. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 43(1), 129-131.
4. Xusenovich, M. S. (2024, September). SEMIZLIKNI TURLI FENOTIPLARIDA YURAK QON-TOMIR KASALLIKLARINI KELIB CHIQISH XAVFI PROGNOZI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 3, No. 26, pp. 15-18).
5. Zubaydullaeva, M. T., & Khamidova, D. B. (2023). ASSESSMENT OF VASCULAR AGE IN PATIENTS WITH METABOLIC SYNDROME (Doctoral dissertation, «SOG 'LOM TURMUSH TARZI» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya).
6. Turapjanovna, Z. M. (2022). SEMIZLIKNI TURLI FENOTIPLARIDA OVQATLANISH TARZINI TAQQOSLASH (Doctoral dissertation).
7. Turapjanovna, Z. M. (2022). SEMIZLIKNI TURLI FENOTIPLARIDA KARDIOMETABOLIK XAVF OMILLARINI ANIQLASH (Doctoral dissertation, Узбекистон).

